# RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN KARDIOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING FARGʻONA VILOYATI MINTAQAVIY FILIALIDA INTERVENSION KARDIOLOGIYA VA KARDIO-JARROHLIK BOʻLIMLARI TASHKIL ETILDI.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ochib berilgan ikkinchi manzil Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Fargʻona viloyati mintaqaviy filiali boʻldi.

Loyiha qiymati: 24,1 mlrd soʻm (mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan).

Quvvati: 26 oʻrin-joyga ega (14 oʻrin-joy kardiojarrohlik, 6 oʻrin-joy kardiojarrohlik reanimasiyasi, 6 oʻrin-joyda intervension kardiologiya uchun intensiv terapiya bloki)

Jihozlash uchun mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan 16,5 mlrd soʻm ajratilgan boʻlib, bugungi kunda 32 xildan ziyod tibbiy jihozlar sotib olingan.

Obʼyekt doirasida intervension kardiologiya va kardiojarrohlik boʻlimlari qurib bitkazilgan. Natijada viloyat aholisiga 60 turdagi yuqori texnologik kardiojarrohlik xizmatlarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook | Instagram | Youtube | Telegram
2023-07-29 10:40:55